

## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI

### “SELEKSIYA YUTUQLARI TO‘G‘RISIDA”GI O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QONUNIGA O‘ZGARTISHLAR VA QO‘SHIMCHALAR KIRITISH HAQIDA

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qaror qiladi:

1996-yil 30-avgustda qabul qilingan “Seleksiya yutuqlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1996-yil, № 9, 133-modda; 1997-yil, № 4-5, 126-modda; 1999-yil, № 1, 20-modda) o‘zgartishlar va qo‘shimchalar kiritilib, uning yangi tahriri tasdiqlansin (ilova qilinmoqda).

**O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti I. KARIMOV**

Toshkent sh.,  
2002-yil 29-avgust,  
395-II-son

## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI

### Seleksiya yutuqlari to‘g‘risida

(yangi tahriri)

#### I. Umumiy qoidalar

##### **1-modda. Ushbu Qonunning maqsadi**

Ushbu Qonunning maqsadi seleksiya yutuqlarini yaratish, huquqiy muhofaza qilish va ulardan foydalanish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

##### **2-modda. Asosiy tushunchalar**

Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

zot — genetik jihatdan o‘zaro bog‘liq biologik va morfologik xususiyatlari hamda belgilariga qarab aniqlanadigan hayvonlar (shu jumladan parrandalar, hasharotlar, ipak qurti) yoki ularning duragaylari guruhi bo‘lib, bu xususiyatlar hamda belgilarning ayrimlari aynan shu guruhga xos bo‘ladi va uni hayvonlarning boshqa guruhlaridan farqlab turadi. Zot guruhi, zot ichidagi (zonal) tip, zavod tipi, zavod liniyasi, zot oilasi, partenoklonlar, liniyalar, duragaylar zotning muhofaza qilinadigan obyektlaridir;

ish beruvchi — seleksiya yutug‘ini yaratish to‘g‘risida topshiriq bergan va bu topshiriq bajarilishini moliyalashtirayotgan yuridik yoki jismoniy shaxs;

litsenziar — seleksiya yutug‘idan foydalanish huquqini litsenziatga litsenziya shartnomasi asosida beruvchi patent egasi;

litsenziat — seleksiya yutug‘idan foydalanish huquqini litsenziardan litsenziya shartnomasi asosida olgan yuridik yoki jismoniy shaxs;

nav — o‘simliklar guruhi bo‘lib, u nasldan naslga barqaror o‘tuvchi, muayyan genotip yoki genotiplar kombinatsiyasini boshqalaridan ajratib turuvchi belgilarga qarab aniqlanadi va ayni bir botanik taksondagi boshqa o‘simliklar guruhidan bir yoki bir necha belgilari bilan farqlanadi. Klon, liniya, birinchi avlod duragayi, populatsiya navning muhofaza qilinadigan obyektlaridir;

patent egasi — seleksiya yutug‘iga berilgan patentning egasi;

seleksiya yutug‘i — o‘simliklarning yangi navi, hayvonlarning yangi zoti;

talabnoma beruvchi — seleksiya yutug‘iga patent berish haqida talabnoma topshirgan yuridik yoki jismoniy shaxs.

*Oldingi tahrirga qarang.*

##### **3-modda. Seleksiya yutuqlari to‘g‘risidagi qonunchilik**

Seleksiya yutuqlari to‘g‘risidagi qonunchilik ushbu Qonun va boshqa qonunchilik hujjatlaridan iboratdir.

Agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O‘zbekiston Respublikasining seleksiya yutuqlari to‘g‘risidagi qonunchiligida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo‘lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo‘llaniladi.

*(3-modda O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*

#### **4-modda. Seleksiya yutuqlarini huquqiy muhofaza qilishning tashkiliy asoslari**

*Oldingi tahrirga qarang.*

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi (bundan buyon matnda Vazirlik deb yuritiladi) seleksiya yutuqlarini huquqiy muhofaza qilish sohasidagi yagona davlat siyosatining amalga oshirilishini ta‘minlaydi.

*(4-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 16-yanvardagi O‘RQ-896-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 16.01.2024-y., 03/24/896/0037-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Vazirlik seleksiya yutuqlariga patentlar berish haqidagi talabnomalarni (bundan buyon matnda patent berish haqidagi talabnoma deb yuritiladi) qabul qilib oladi, ularning rasmiy ekspertizasini tashkil etadi, O‘simlik navlari davlat reyestrini hamda Hayvon zotlari davlat reyestrini (bundan buyon matnda reyestr deb yuritiladi) yuritadi, seleksiya yutuqlariga patentlar beradi, talabnoma materiallari va O‘zbekiston Respublikasida ro‘yxatga olinib, muhofaza qilinayotgan seleksiya yutuqlari haqidagi ma‘lumotlarni rasmiy ravishda e‘lon qiladi, seleksiya yutuqlari to‘g‘risidagi qonunchilikni qo‘llashga doir qoidalar qabul qiladi hamda tushuntirishlar beradi.

*(4-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 16-yanvardagi O‘RQ-896-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 16.01.2024-y., 03/24/896/0037-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi “Intellectual mulk markazi” davlat muassasasi (bundan buyon matnda Davlat muassasasi deb yuritiladi) patent berish haqidagi talabnomaning rasmiy ekspertizasini o‘tkazadi.

*(4-modda O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 16-yanvardagi O‘RQ-896-sonli Qonuniga asosan uchinchi qism bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 16.01.2024-y., 03/24/896/0037-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Qishloq xo‘jalik ekinlari navlarini sinash markazi, O‘zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo‘mitasi (bundan buyon matnda ixtisoslashtirilgan tashkilotlar deb yuritiladi) talabnomada ko‘rsatilgan seleksiya yutuqlarining patentga layoqatligini ekspertizadan o‘tkazadi.

*(4-moddaning uchinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 12-noyabrda O‘RQ-583-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 13.11.2019-y., 03/19/583/4016-son)*

#### **5-modda. Seleksiya yutug‘ining muallifi**

Ijodiy mehnati bilan o‘simliklarning yangi navi yoki hayvonlarning yangi zotini yaratgan (chiqargan yoki aniqlagan) jismoniy shaxs seleksiya yutug‘ining muallifi deb e‘tirof etiladi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

Agar seleksiya yutug‘ini yaratishda bir nechta jismoniy shaxs ishtirok etgan bo‘lsa, ularning hammasi hammualliflar deb e‘tirof etiladi. Hammualliflarga tegishli bo‘lgan huquqlardan foydalanish tartibi qonunchilikda hamda ular o‘rtasidagi kelishuvda belgilanadi.

*(5-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*

Mualliflik huquqi boshqaga o‘tkazilmaydigan shaxsiy huquq bo‘lib, muddatsiz himoya qilinadi.

Muallif (hammualliflar) o‘z nomi (nomlari) patent berish haqidagi talabnomada, patentda va seleksiya yutug‘i xususida e‘lon qilinadigan barcha materiallarda ko‘rsatilishi huquqiga ega.

#### **6-modda. Patent egasi**

Seleksiya yutug'iga patent:  
seleksiya yutug'ining muallifiga (hammualliflariga) yoki uning (ularning) merosxo'riga (merosxo'rlariga);

*Oldingi tahrirga qarang.*

muallif yoki uning merosxo'ri tomonidan patent berish haqidagi talabnomada yoki seleksiya yutug'i ro'yxatdan o'tkazilgunga qadar Vazirlikka topshirilgan talabnoma beruvchini o'zgartirish to'g'risidagi arizada ko'rsatilgan yuridik va (yoki) jismoniy shaxslarga (ular rozi bo'lgan taqdirda);  
*(6-moddaning uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 16-yanvardagi O'RQ-896-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 16.01.2024-y., 03/24/896/0037-son)*  
ushbu Qonunning 7-moddasida nazarda tutilgan hollarda ish beruvchiga beriladi.

### **7-modda. Xizmat tartibida yaratilgan seleksiya yutug'i patentining egasi**

Agar muallif (hammualliflar) seleksiya yutug'i yaratilayotganda:  
o'zi (o'zlari) egallab turgan lavozimga xos vazifalarni bajargan bo'lsa;  
seleksiya yutug'ini yaratish maqsadini ko'zlab zimmasiga (zimmalariga) maxsus yuklatilgan vazifalarni bajargan bo'lsa;  
ish beruvchi tomonidan o'ziga (o'zlariga) berilgan moddiy vositalar yoki moliyaviy mablag'lardan foydalangan bo'lsa;  
o'zi (o'zlari) ish jarayonida orttirgan, ish beruvchi tashkilotning o'ziga xos xususiyatini tashkil etadigan bilim va tajribadan foydalangan bo'lsa, bunday seleksiya yutug'i xizmat tartibida yaratilgan deb hisoblanadi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

Agar ish beruvchi yaratilgan seleksiya yutug'i to'g'risida muallif (hammualliflar) tomonidan yozma ravishda xabardor qilingan sanadan e'tiboran to'rt oy ichida Vazirlikka patent berish haqidagi talabnomani topshirmasa, patent berish haqidagi talabnomani topshirish huquqidan boshqa shaxs foydasiga voz kechmasa va seleksiya yutug'ini sir saqlash to'g'risida muallifga (hammualliflarga) ma'lum qilmasa, u holda muallif (hammualliflar) talabnoma topshirish va o'z nomiga patent olish huquqiga ega bo'ladi. Bunday holda, ish beruvchi patent egasiga shartnomada belgilanadigan miqdorda tovon to'lab, o'z ishlab chiqarishida seleksiya yutug'idan foydalanishda ustuvor huquqqa ega bo'ladi.

*(7-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 16-yanvardagi O'RQ-896-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 16.01.2024-y., 03/24/896/0037-son)*

Ish beruvchi seleksiya yutug'ini sir saqlagan taqdirda muallifga (hammualliflarga) mutanosib ravishda haq to'lashi shart, haq miqdori shartnomada belgilanadi.

Patent egasi bo'lmagan seleksiya yutug'ining muallifi (hammualliflari) seleksiya yutug'iga doir litsenziyadan foydalanilganligi yoxud u sotilganligi uchun haq olish huquqiga ega, bu haqning miqdori va uni to'lash tartibi patent egasi yoki uning huquqiy vorisi bilan tuzilgan shartnomada belgilab qo'yiladi.

Muallifga (hammualliflarga) haqni patent egasi yoki uning huquqiy vorisi, agar seleksiya yutug'idan foydalanganlik uchun haq to'lash tartibi va muddatlari to'g'risidagi shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, patentning amal qilish muddati davomida to'laydi.

Haq muallifga (hammualliflarga) seleksiya yutug'idan foydalanilgan hisobot davri tugaganidan keyin uzog'i bilan olti oy ichida to'lanadi.

## **II. Seleksiya yutug'ining patentga layoqatliligi**

### **8-modda. Seleksiya yutug'iga huquqiy muhofaza berish shartlari**

Agar seleksiya yutug'i yangilik, farqlanish, turdoshlik va barqarorlik mezonlariga javob bersa, u huquqiy muhofaza qilinadi.

Ushbu Qonun 13-moddasining talablariga muvofiq seleksiya yutug'ining nomi bo'lishi lozim.

### **9-modda. Yangilik**

Agar urug'lik, navning ko'chat materiali yoki zotning nasl materiali patent berish haqidagi talabnoma topshirilgan sanadan e'tiboran:

O'zbekiston Respublikasi hududida — kamida bir yil oldin;

boshqa davlat hududida — kamida to'rt yil yoki, agar tok, yog'ochbop, manzarali, mevali daraxtlar va o'rmon daraxtlarining navlariga taalluqli bo'lsa, kamida olti yil oldin muallif, uning merosxo'ri tomonidan yoxud ularning roziligi bilan sotilmagan va foydalanish uchun boshqa shaxslarga berilmagan bo'lsa, yangilik hisoblanadi.

### **10-modda. Farqlanish**

Seleksiya yutug'i patent berish haqidagi talabnoma topshirilgan sanada boshqa har qanday barchaga ma'lum seleksiya yutug'idan aniq-ravshan farqlanishi lozim.

Seleksiya yutug'i, agar patent berish haqidagi talabnoma har qanday mamlakatda topshirilgan va bu talabnomaga muvofiq patent yoki muhofazaning shunga o'xshash boshqa bir shakli berilgan bo'lsa yoxud seleksiya yutug'i shu mamlakatning seleksiya yutuqlari rasmiy reyestriga kiritilgan bo'lsa, talabnoma topshirilgan sanada barchaga ma'lum deb hisoblanadi.

Barchaga ma'lumlik:

keyinchalik ko'paytirish, saqlash maqsadlarida yetishtirish, takror yetishtirish, nav yoki nasllik konditsiyasiga yetkazish va yuqorida sanab o'tilgan maqsadlarda asrash natijasida barchaga ma'lum bilim darajasining bir qismiga aylangan seleksiya yutug'iga nisbatan;

sotishga taklif etilgan, sotilgan, mamlakatga olib kirilgan yoki mamlakatdan olib chiqib ketilgan seleksiya yutug'iga nisbatan aniqlanadi.

### **11-modda. Turdoshlik**

Agar ko'paytirishning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olganda muayyan navli o'simliklar yoki muayyan zotli hayvonlar seleksiyalashtirish belgilariga ko'ra bir xillikka ega bo'lsa, seleksiya yutug'i turdosh hisoblanadi.

### **12-modda. Barqarorlik**

Agar seleksiya yutug'i bir necha marta ko'paytirilganidan keyin yoki alohida sikl bo'yicha ko'paytirilgan taqdirda ko'paytirishning har bir sikli oxirida uning asosiy belgilari o'zgarishsiz qolsa, u barqaror hisoblanadi.

### **13-modda. Seleksiya yutug'ining nomi**

*Oldingi tahrirga qarang.*

Seleksiya yutug'ining talabnoma beruvchi taklif etgan va Davlat muassasasi tomonidan qabul qilingan nomi bo'lishi lozim.

*(13-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 16-yanvardagi O'RQ-896-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 16.01.2024-y., 03/24/896/0037-son)*

Seleksiya yutug'ining nomi seleksiya yutug'ini identifikatsiya qilish imkonini berishi, qisqa bo'lishi, shu yoki shunga yaqin botanik yoxud zoologik turdagi mavjud seleksiya yutuqlarining nomidan farqlanib turishi kerak. Seleksiya yutug'ining nomi faqat raqamlardan iborat bo'lib qolmasligi, seleksiya yutug'ining xususiyatlari, kelib chiqishi, ahamiyati haqida, muallifning (hammualliflarning) shaxsi haqida yanglishishlarga olib kelmasligi, insonparvarlik va axloq qoidalariga zid bo'lmasligi lozim.

Seleksiya yutug'ining nomi tegishli reyestriga ayni bir vaqtda muhofaza etiladigan seleksiya yutug'i to'g'risidagi ma'lumotlar ham kiritilgan holda qayd etiladi.

Agar patent berish haqidagi talabnoma O'zbekiston Respublikasi va boshqa davlatlarda topshirilayotgan bo'lsa, seleksiya yutug'ining nomi bu talabnomalarda bir xil bo'lishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi hududida yoki O'zbekiston Respublikasi seleksiya yutuqlarini huquqiy muhofaza qilish to'g'risida shartnoma tuzgan mamlakat hududida urug'likni, navning ko'chat materialini yoxud zotning nasl materialini sotishni taklif etayotgan yoki sotayotgan har qanday shaxs seleksiya yutug'ining nomidan, agar uchinchi shaxslarning huquqlari bundan foydalanishga to'sqinlik qilmaydigan bo'lsa, hatto seleksiya yutug'iga berilgan patentning amal qilish muddati tugaganidan keyin ham foydalanishi shart.

### III. Seleksiya yutug'iga patent olish

#### 14-modda. Seleksiya yutug'ining patenti

Patentga layoqatlilik mezonlariga javob beradigan va O'zbekiston Respublikasida muhofaza qilinadigan botanik va zoologik oila turkumlari hamda turlarga taalluqli seleksiya yutug'iga patent beriladi.

Seleksiya yutug'ining patenti (bundan buyon matnda patent deb yuritiladi) seleksiya yutug'ining yangilik ekanligini, farqlanishini, turdoshligi va barqarorligini, shuningdek patent egasining seleksiya yutug'ining nomi, seleksiya yutug'iga egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etishga bo'lgan huquqini tasdiqlaydi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

Patent egasining huquqi seleksiya yutug'i ro'yxatga olinganligi to'g'risida Vazirlikning rasmiy axborotnomasida ma'lumot e'lon qilingan sanadan e'tiboran amalda deb hisoblanadi.

*(14-moddaning uchinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 16-yanvardagi O'RQ-896-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 16.01.2024-y., 03/24/896/0037-son)*

Patentning amal qilish muddati seleksiya yutug'i tegishli reyestrda ro'yxatga olingan sanadan e'tiboran yigirma yilga teng. Tok, yog'ochbop, manzarali, mevali daraxtlar va o'rmon daraxtlarining navlari, shu jumladan ularning payvandtaglari uchun bu muddat yigirma besh yilni tashkil etadi.

Patentning amal qilish muddati patent egasining iltimosnomasiga binoan ko'pi bilan o'n yilga uzaytirilishi mumkin.

#### 15-modda. Patentga bo'lgan huquq

Patentga bo'lgan huquq muallifga (hammualliflarga) yoki uning (ularning) merosxo'riga (merosxo'rlariga) tegishlidir.

Agar bir nechta shaxs birgalikda bitta seleksiya yutug'i yaratgan bo'lsa, patentga bo'lgan huquq ularning hammasiga tegishli bo'ladi. Ulardan bittasining yoki bir nechtasining patentga bo'lgan huquqdan voz kechishi boshqalarining patent olish harakatlarini sodir etishiga hamda patent olish taomilida ishtirok etishiga taalluqli bo'lmaydi.

Muallif (hammualliflar) o'zining (o'zlarining) xizmat vazifalarini, muayyan topshiriqni bajarishi bilan bog'liq holda yoki ish beruvchi tashkilotning o'ziga xos xususiyatini tashkil etadigan bilim va tajriba yordamida yaratilgan seleksiya yutug'iga beriladigan patentga bo'lgan huquq, agar bu ular o'rtasidagi shartnomada nazarda tutilgan bo'lsa, ish beruvchiga tegishlidir.

*Oldingi tahrirga qarang.*

Agar seleksiya yutug'ini bir nechta shaxs bir-biridan mustaqil ravishda yaratgan bo'lsa, patent olish huquqi patent berish haqidagi talabnomani Vazirlikka oldinroq topshirgan shaxsga, basharti bu talabnoma chaqirib olinmagan yoki rad etilmagan bo'lsa, tegishlidir.

*(15-moddaning to'rtinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 16-yanvardagi O'RQ-896-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 16.01.2024-y., 03/24/896/0037-son)*

Muallif (hammualliflar), agar o'zi (o'zlari) yaratgan seleksiya yutug'ini boshqalar g'ayriqonuniy o'zlashtirib olishi natijasida bu seleksiya yutug'iga talabnoma topshirilgan yoki patent olingan bo'lsa, patent berilganligiga qarshi e'tiroz bildirish yoxud patent egasi sifatida o'ziga (o'zlariga) patentning o'tkazilishini sud tartibida talab qilish huquqiga ega.

*Oldingi tahrirga qarang.*

Davlat muassasasining va ixtisoslashtirilgan tashkilotlarning xodimlari ana shu idora va tashkilotlarda ishlagan butun davrida ham, ishdan ketganlaridan keyin bir yil davomida ham patent olish, shuningdek o'zlarini muallif (hammualliflar) sifatida ko'rsatish huquqiga ega emas.

*(15-moddaning oltinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 16-yanvardagi O'RQ-896-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 16.01.2024-y., 03/24/896/0037-son)*

#### 16-modda. Patent berish haqidagi talabnomani topshirish

*Oldingi tahrirga qarang.*

*Oldingi tahrirga qarang.*



Patent berish haqidagi talabnoma muallif (hammualliflar), ish beruvchi yoki ularning huquqiy vorisi tomonidan Vazirlikka topshiriladi.

*(16-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 16-yanvardagi O'RQ-896-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 16.01.2024-y., 03/24/896/0037-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Patent berish haqidagi talabnoma shaxsan, Vazirlikda ro'yxatga olingan patent vakili orqali yoki ishonchli shaxs orqali topshirilishi mumkin. Boshqa davlatlarning O'zbekiston Respublikasida doimiy turar joyiga ega bo'lmagan fuqarolari va boshqa davlatlarning O'zbekiston Respublikasida doimiy manzili bo'lmagan yuridik shaxslari, ularning patent vakillari yoki ishonchli shaxslari patent olish va uni o'z kuchida saqlash borasidagi ishlarni O'zbekiston Respublikasining patent vakillari orqali olib boradilar. Patent vakilining vakolatlari unga talabnoma beruvchi yoki ishonchli shaxs bergan ishonchnoma bilan tasdiqlanadi.

*(16-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 16-yanvardagi O'RQ-896-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 16.01.2024-y., 03/24/896/0037-son)*

### **17-modda. Patent berish haqidagi talabnomaning mazmuni**

Patent berish haqidagi talabnoma:

muallif (hammualliflar) va kimning nomiga patent so'ralayotgan bo'lsa, ana shu shaxs (shaxslar), shuningdek ularning turar joyi yoki manziliga doir ma'lumotlar ko'rsatilgan patent berish haqidagi arizani;

seleksiya yutug'ining nomi to'g'risidagi taklifni;

seleksiya yutug'ining tavsifini (texnikaviy anketasini);

seleksiya yutug'i namunalarining fotosuratlarini;

talabnoma beruvchi tomonidan o'tkazilgan seleksiya yutug'i sinovlariga doir hujjatlarni;

talabnoma beruvchining seleksiya yutug'idan foydalanilmaganligi, u sotilmaganligi, o'zga shaxsga berilmaganligi hamda uning yangilik talablariga mosligini tasdiqlaydigan deklaratsiyasini;

seleksiya yutug'ining ustuvorligini tasdiqlovchi hujjatni (zarurat bo'lganda);

talabnoma beruvchining seleksiya yutug'ini sinovdan o'tkazish uchun materialni belgilangan muddatda ixtisoslashtirilgan tashkilotga taqdim etish majburiyatini;

talabnoma patent vakili yoki ishonchli shaxs orqali topshirilganida ularga berilgan ishonchnomani;

patent boji belgilangan miqdorda to'langanligini yoxud patent boji to'lashdan ozod qilish, shuningdek uning miqdorini kamaytirish asoslarini tasdiqlovchi hujjatni o'z ichiga olgan bo'lishi kerak.

Patent berish haqidagi talabnoma bitta seleksiya yutug'iga taalluqli bo'lishi lozim.

*Oldingi tahrirga qarang.*

Patent berish haqidagi talabnoma topshirilgan sana ushbu moddaning **birinchi qismi** talablariga muvofiq bo'lgan hujjatlar Vazirlikka kelib tushgan sanaga qarab belgilanadi.

*(17-moddaning uchinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 16-yanvardagi O'RQ-896-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 16.01.2024-y., 03/24/896/0037-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

*(17-moddaning to'rtinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 14-sentabrdagi O'RQ-446-sonli Qonuniga asosan chiqarilgan — O'R QHT, 2017-y., 37-son, 978-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Patent berish haqidagi talabnoma hujjatlariga doir talablar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan ma'muriy reglament bilan belgilanadi.

*(17-moddaning to'rtinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 16-yanvardagi O'RQ-896-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 16.01.2024-y., 03/24/896/0037-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Patent berish haqidagi talabnomalarning materiallari Vazirlikda va Davlat muassasasida sir saqlanishi shart va talabnomalarning rasmiy ekspertizasini o'tkazish davrida talabnoma beruvchining rozilgisiz bu materiallar to'g'risida axborotlar berilmaydi.

*(17-moddaning beshinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 16-yanvardagi O'RQ-896-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 16.01.2024-y., 03/24/896/0037-son)*

## **18-modda. Seleksiya yutug'ining ustuvorligi**

*Oldingi tahrirga qarang.*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Seleksiya yutug'ining ustuvorligi ushbu Qonunning talablariga muvofiq rasmiylashtirilgan patent berish haqidagi talabnoma Vazirlikka topshirilgan sanaga ko'ra belgilanadi.

*(18-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 16-yanvardagi O'RQ-896-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 16.01.2024-y., 03/24/896/0037-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Agar patent berish haqidagi aynan o'xshash talabnomalar ayni bitta ustuvorlik sanasiga ega bo'lsa, u holda patent Vazirlikka birmuncha oldinroq sana bilan yuborilgan yoki ro'yxatga olish kiritilgan birmuncha oldinroq qayd etilgan talabnomaga beriladi.

*(18-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 16-yanvardagi O'RQ-896-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 16.01.2024-y., 03/24/896/0037-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Agar talabnoma beruvchi Vazirlikka patent berish haqidagi talabnomani topshirishdan oldin O'zbekiston Respublikasi seleksiya yutuqlarini huquqiy muhofaza qilish to'g'risida shartnoma tuzgan boshqa davlatga talabnoma (bundan buyon matnda birinchi talabnoma deb yuritiladi) topshirgan bo'lsa, talabnoma beruvchi talabnoma tushgan sanadan e'tiboran o'n ikki oy davomida birinchi talabnoma bo'yicha ustuvorlik huquqiga ega bo'ladi.

*(18-moddaning uchinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 16-yanvardagi O'RQ-896-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 16.01.2024-y., 03/24/896/0037-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Talabnoma beruvchi Vazirlikka yuborilayotgan patent berish haqidagi talabnomasida birinchi talabnomaning ustuvorlik sanasini ko'rsatishi lozim. Talabnoma beruvchi talabnoma Vazirlikka topshirilgan sanadan e'tiboran uch oy ichida birinchi talabnomaning nusxasini va tarjimasini taqdim etishi shart. Bu shartlar bajarilgan taqdirda, talabnoma beruvchi birinchi talabnoma topshirilgan sanadan e'tiboran uch yil mobaynida qo'shimcha hujjatlar va sinov uchun zarur material taqdim etmaslikka haqli.

*(18-moddaning to'rtinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 16-yanvardagi O'RQ-896-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 16.01.2024-y., 03/24/896/0037-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Ushbu moddaning **uchinchi** va **to'rtinchi qismlarida** ko'rsatilgan muddatlarga rioya etmaslik talab qilinayotgan ustuvorlikning e'tirof etilmasligiga sabab bo'ladi.

*(18-moddaning beshinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 14-sentabrdagi O'RQ-446-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2017-y., 37-son, 978-modda)*

Patent berish haqidagi keyingi talabnomani topshirish, birinchi talabnomaning predmeti bo'lgan seleksiya yutug'ini e'lon qilish yoki undan foydalanish, agar bu ishlar ushbu moddaning **uchinchi qismida** nazarda tutilgan muddat ichida amalga oshirilgan bo'lsa, keyingi talabnomani rad etish uchun asos bo'la olmaydi. Bunday hollar uchinchi shaxslarning biron-bir huquqlari yuzaga kelishi uchun ham asos bo'la olmaydi.

*(18-moddaning matni O'zbekiston Respublikasining 2011-yil 26-dekabrda O'RQ-312-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2011-y., 52-son, 555-modda)*

## **19-modda. Seleksiya yutug'ining davlat ekspertizasi**

Talabnomada ko'rsatilgan seleksiya yutug'ining davlat ekspertizasi talabnomaning rasmiy ekspertizasini va mazkur seleksiya yutug'i yangilik ekanligini ekspertiza qilishdan hamda farqlanish, turdoshlik va barqarorlikni aniqlash maqsadida sinovdan o'tkazishdan iborat patentga layoqatlilik ekspertizasini o'z ichiga oladi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

Seleksiya yutug'ining davlat ekspertizasini o'tkazish tartibi ma'muriy reglament bilan belgilanadi.

*(19-modda O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 16-yanvardagi O'RQ-896-sonli Qonuniga asosan ikkinchi qism bilan to'ldirilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 16.01.2024-y., 03/24/896/0037-son)*

## **20-modda. Talabnomaning rasmiy ekspertizasi**

*Oldingi tahrirga qarang.*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Talabnomaning rasmiy ekspertizasi talabnoma topshirilgan sanadan e'tiboran ikki oy o'tgach o'tkaziladi. Talabnoma beruvchining iltimosnomasiga binoan rasmiy ekspertiza ko'rsatilgan muddat tugashidan oldin boshlanishi mumkin. Ekspertiza mobaynida ustuvorlik sanasi belgilanadi, zarur hujjatlarning qo'yilayotgan talablarga qanchalik mosligi tekshiriladi.

*(20-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 14-sentabrdagi O'RQ-446-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2017-y., 37-son, 978-modda)*

Talabnoma beruvchi talabnoma topshirilgan sanadan e'tiboran ikki oy mobaynida o'z tashabbusi bilan talabnoma materiallariga qo'shimchalar, aniqliklar yoki tuzatishlar kiritishga haqlidir.

*Oldingi tahrirga qarang.*

Agar talabnomaning rasmiy ekspertizasi jarayonida talabnoma qonunchilikda belgilangan talablarni buzgan holda rasmiylashtirilganligi aniqlansa, talabnoma beruvchiga tegishli bildirishnoma yuborilgan sanadan e'tiboran uch oy muddat ichida yetishmayotgan yoki tuzatilgan hujjatlarni taqdim etish zarurligi to'g'risida bildirishnoma yuboriladi.

*(20-moddaning uchinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Agar zarur qo'shimchalar, aniqliklar yoki tuzatishlar belgilangan muddatda kiritilmagan, patent berish haqidagi talabnoma tushgan sanada undagi yetishmayotgan hujjatlar taqdim etilmagan yoki ushbu moddaning **uchinchi qismida** ko'rsatilgan muddatni uzaytirish to'g'risidagi iltimosnoma topshirilmagan bo'lsa, u holda talabnoma chaqirib olingan deb hisoblanadi.

*(20-moddaning to'rtinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 14-sentabrdagi O'RQ-446-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2017-y., 37-son, 978-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Talabnoma beruvchi tomonidan o'tkazib yuborilgan muddat, uning bu muddat o'tganidan keyin olti oydan kechiktirmay topshirgan iltimosnomasiga binoan, Davlat muassasasi tomonidan tiklanishi mumkin.

*(20-moddaning beshinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 16-yanvardagi O'RQ-896-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 16.01.2024-y., 03/24/896/0037-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Talabnomaning rasmiy ekspertizasi natijalari bo'yicha Davlat muassasasining qarori talabnoma beruvchiga ma'lum qilinadi.

*(20-moddaning oltinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 16-yanvardagi O'RQ-896-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 16.01.2024-y., 03/24/896/0037-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Talabnoma beruvchi Davlat muassasasining qaroriga rozi bo'lmasa, qaror yuborilgan sanadan e'tiboran uch oy mobaynida O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Apellatsiya kengashiga (bundan buyon matnda Apellatsiya kengashi deb yuritiladi) murojaat qilish huquqiga ega. Apellatsiya kengashi apellatsiya kelib tushgan sanadan e'tiboran ikki oylik muddat ichida uni ko'rib chiqishi lozim.

*(20-moddaning yettinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 16-yanvardagi O'RQ-896-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 16.01.2024-y., 03/24/896/0037-son)*



Apellatsiya kengashining qarori ustidan qaror qabul qilingan sanadan e'tiboran olti oy ichida sudga shikoyat qilinishi mumkin.

*Oldingi tahrirga qarang.*

Rasmiy ekspertizadan o'tgan patent berish haqidagi talabnomani Davlat muassasasi patentga layoqatliligini ekspertizadan o'tkazish uchun tegishli ixtisoslashtirilgan tashkilotga yuboradi.

*(20-moddaning to'qqizinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 16-yanvardagi O'RQ-896-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 16.01.2024-y., 03/24/896/0037-son)*

## **21-modda. Seleksiya yutug'ining muvaqqat huquqiy muhofazasi**

Muhofaza talab qilingan seleksiya yutug'iga muvaqqat huquqiy muhofaza patent berish haqidagi talabnomaga oid ma'lumotlar e'lon qilingan sanadan e'tiboran seleksiya yutug'i tegishli reyestrda ro'yxatga olinadigan sanaga qadar belgilanadi.

Seleksiya yutug'iga muvaqqat huquqiy muhofaza amal qiladigan davrda talabnoma beruvchiga nisbatan ushbu Qonunning 30-moddasiga muvofiq patent egasining huquqi amal qiladi.

Agar patent berishni rad etish haqida qaror qabul qilinib, bu qaror ustidan shikoyat qilish imkoniyatlari tugagan bo'lsa, muvaqqat huquqiy muhofaza boshlanmagan deb hisoblanadi.

Muhofaza talab qilingan seleksiya yutuqlaridan ularga muvaqqat huquqiy muhofaza belgilangan davrda foydalanayotgan shaxs patent olinganidan keyin patent egasining talabiga binoan unga tovon puli to'lashi shart, bu tovonning miqdori patent egasi bilan tuzilgan kelishuvda belgilab qo'yiladi.

## **22-modda. Seleksiya yutug'i yangilik ekanligining ekspertizasi**

*Oldingi tahrirga qarang.*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Seleksiya yutug'i yangilik ekanligining ekspertizasini ixtisoslashtirilgan tashkilot mavjud hujjatlar va dalil-isbotlar, shu jumladan o'z tashabbusi bilan olgan axborot asosida amalga oshiradi hamda talabnomada ko'rsatilgan seleksiya yutug'ining yangilik mezoniga muvofiqligi yoki nomuvofiqligi to'g'risida Davlat muassasasiga xulosa taqdim etadi. Davlat muassasasi yangilik mavjudligi yoki yo'qligi to'g'risida talabnoma beruvchini yozma ravishda xabardor etadi.

*(22-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 16-yanvardagi O'RQ-896-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 16.01.2024-y., 03/24/896/0037-son)*

Patent berish haqidagi talabnomaga oid ma'lumotlar e'lon qilingan sanadan e'tiboran olti oy ichida har qanday manfaatdor shaxs talabnomada ko'rsatilgan seleksiya yutug'ining yangilik ekanligiga nisbatan o'z e'tirozini tegishli ixtisoslashtirilgan tashkilotga yuborishi mumkin.

Tegishli ixtisoslashtirilgan tashkilot e'tiroz olinganligini talabnoma beruvchiga ma'lum qiladi. Talabnoma beruvchi e'tirozga rozi bo'lmasa, bildirishnoma olingan kundan e'tiboran uch oylik muddat ichida ixtisoslashtirilgan tashkilotga asoslantirilgan e'tiroz talabini yuborish huquqiga ega. Ixtisoslashtirilgan tashkilot kelib tushgan materiallar yuzasidan qaror qabul qiladi va manfaatdor shaxs hamda talabnoma beruvchini bundan xabardor etadi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

Agar talabnomada ko'rsatilgan seleksiya yutug'i yangilik mezoniga nomuvofiq bo'lsa, Davlat muassasasi patent berishni rad etish to'g'risida qaror qabul qiladi.

*(22-moddaning to'rtinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 16-yanvardagi O'RQ-896-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 16.01.2024-y., 03/24/896/0037-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Talabnoma beruvchi uch oylik muddat ichida Davlat muassasasining patent berishni rad etish to'g'risidagi qarori ustidan Apellatsiya kengashiga apellatsiya bilan murojaat etishi mumkin. Apellatsiya kengashi apellatsiya kelib tushgan sanadan e'tiboran ikki oylik muddat ichida uni ko'rib chiqishi kerak.

*(22-moddaning beshinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 16-yanvardagi O'RQ-896-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 16.01.2024-y., 03/24/896/0037-son)*

Apellatsiya kengashining qarori ustidan qaror qabul qilingan sanadan e'tiboran olti oy ichida sudga shikoyat qilinishi mumkin.

*(22-moddaning matni O'zbekiston Respublikasining 2011-yil 26-dekabrda O'RQ-312-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2011-y., 52-son, 555-modda)*

### **23-modda. Talabnomada ko'rsatilgan seleksiya yutug'ining sinovlari**

Talabnomada ko'rsatilgan seleksiya yutug'ining sinovlari farqlanish, turdoshlik va barqarorlik mezonlariga moslikni sinashdan iboratdir.

Talabnomada ko'rsatilgan seleksiya yutug'ining sinovlari ixtisoslashtirilgan tashkilotlar belgilagan usul va muddatlarda, ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan davlat nav sinash stansiyalarida, davlat nav sinash uchastkalarida, boshqa tashkilotlarda o'tkaziladi.

Talabnoma beruvchi sinov o'tkazish uchun kerakli miqdordagi urug'likni, ko'chat yoki nasl materialini ixtisoslashtirilgan tashkilot tomonidan belgilangan manzilga, ko'rsatilgan muddatlarda taqdim etishi shart.

Ixtisoslashtirilgan tashkilot talabnoma beruvchi, shuningdek O'zbekiston Respublikasining korxonalari, muassasalari, tashkilotlari va boshqa davlatlarning vakolatli organlari tomonidan taqdim etilgan sinov natijalaridan foydalanishga haqli.

Ixtisoslashtirilgan tashkilot sinov natijalariga ko'ra seleksiya yutug'ining patentga layoqatlilik mezonlariga mosligi to'g'risida xulosa chiqaradi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

Agar seleksiya yutug'i patentga layoqatlilik mezonlariga, uning nomi esa belgilangan talablarga javob bersa, ixtisoslashtirilgan tashkilot seleksiya yutug'ining rasmiy tavsifini tayyorlaydi, Davlat muassasasi esa patent berish to'g'risida qaror qabul qiladi.

*(23-moddaning oltinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 16-yanvardagi O'RQ-896-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 16.01.2024-y., 03/24/896/0037-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Agar seleksiya yutug'i patentga layoqatlilik mezonlariga javob bermasa, Davlat muassasasi patent berishni rad etish to'g'risida qaror qabul qiladi.

*(23-moddaning yettinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 16-yanvardagi O'RQ-896-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 16.01.2024-y., 03/24/896/0037-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Talabnoma beruvchi uch oylik muddat ichida Davlat muassasasining qarori ustidan Apellatsiya kengashiga apellatsiya bilan murojaat qilishi mumkin. Agar seleksiya yutug'ini qo'shimcha ravishda sinash zaruriyati yuzaga kelmasa, Apellatsiya kengashi apellatsiya kelib tushgan sanadan e'tiboran ikki oylik muddat ichida uni ko'rib chiqishi kerak.

*(23-moddaning sakkizinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 16-yanvardagi O'RQ-896-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 16.01.2024-y., 03/24/896/0037-son)*

Apellatsiya kengashining qarori ustidan qaror qabul qilingan sanadan e'tiboran olti oy ichida sudga shikoyat qilinishi mumkin.

### **24-modda. Patent berish haqidagi talabnomani chaqirib olish**

Patent berish haqidagi talabnoma patent berish to'g'risida yoki patent berishni rad etish haqida qaror qabul qilingunga qadar talabnoma beruvchining yozma iltimosnomasiga binoan chaqirib olinishi mumkin.

Talabnoma beruvchilar bir nechta bo'lsa, patent berish haqidagi talabnoma faqat ulardan har birining roziligi bilan chaqirib olinishi mumkin.

### **25-modda. Seleksiya yutug'ini ro'yxatga olish**

*Oldingi tahrirga qarang.*

Davlat muassasasi patent berish to'g'risida qaror qabul qilganidan keyin Vazirlik seleksiya yutug'ini tegishli reyestrda ro'yxatga oladi.

*(25-moddaning matni O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 16-yanvardagi O'RQ-896-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 16.01.2024-y., 03/24/896/0037-son)*

## **26-modda. Seleksiya yutug'iga doir ma'lumotlarni rasman e'lon qilish**

*Oldingi tahrirga qarang.*

Ko'rib chiqish uchun qabul qilingan patent berish haqidagi talabnomalarga, ro'yxatga olingan seleksiya yutuqlariga, Vazirlikning va Davlat muassasasining yuridik ahamiyatga ega harakatlariga doir ma'lumotlar, seleksiya yutuqlarining to'liq tavsiflari, huquqlardan boshqaning foydasiga voz kechish to'g'risidagi ro'yxatga olingan shartnomalar va litsenziya shartnomalari, shuningdek seleksiya yutuqlariga taalluqli boshqa ma'lumotlar Vazirlikning rasmiy axborotnomasida e'lon qilinadi.

*(26-moddaning matni O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 16-yanvardagi O'RQ-896-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 16.01.2024-y., 03/24/896/0037-son)*

## **27-modda. Patent berish**

*Oldingi tahrirga qarang.*

Patentni O'zbekiston Respublikasi nomidan Vazirlik beradi.

*(27-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 16-yanvardagi O'RQ-896-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 16.01.2024-y., 03/24/896/0037-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

*(27-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 14-sentabrdagi O'RQ-446-sonli Qonuniga asosan chiqarilgan — O'R QHT, 2017-y., 37-son, 978-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

*(27-moddaning uchinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 14-sentabrdagi O'RQ-446-sonli Qonuniga asosan chiqarilgan — O'R QHT, 2017-y., 37-son, 978-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Vazirlik patent berishni seleksiya yutug'i ro'yxatga olinganligi to'g'risidagi ma'lumotlar e'lon qilingan sanadan e'tiboran o'n ish kuni o'tgach amalga oshiradi.

*(27-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 16-yanvardagi O'RQ-896-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 16.01.2024-y., 03/24/896/0037-son)*

Patent bir nechta shaxs nomiga so'ralganda ularga bitta patent beriladi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

Patentning shakli va unda ko'rsatiladigan ma'lumotlar tarkibi Vazirlik tomonidan belgilanadi.

*(27-moddaning to'rtinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 16-yanvardagi O'RQ-896-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 16.01.2024-y., 03/24/896/0037-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Berilgan patentdagi ko'zga yaqqol tashlanib turgan va texnik xatolar patent egasining talabiga ko'ra Vazirlik tomonidan tuzatiladi.

*(27-moddaning beshinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 16-yanvardagi O'RQ-896-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 16.01.2024-y., 03/24/896/0037-son)*

Patent egasi patentni olganidan keyin muhofaza qilinayotgan seleksiya yutug'iga taalluqli zarur materialni saqlash uchun yuboradi.

## **28-modda. Seleksiya yutug'ini saqlash**

Patent egasi navni, zotni patentning amal qilish muddati davomida shunday saqlashi shartki, toki nav, zot tegishli reyestrda ro'yxatga olingan sanada tuzilgan ularga doir rasmiy tavsifda ko'rsatilgan belgilar saqlanib qolsin.

*Oldingi tahrirga qarang.*

Patent egasi ixtisoslashtirilgan tashkilotlar va (yoki) Davlat muassasasining so'roviga binoan nazorat sinovlarini o'tkazish uchun nav urug'larini yoki nasl materialini yuborishi va joyning o'zida tekshirib ko'rilishi uchun imkoniyat yaratib berishi shart.

*(28-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 16-yanvardagi O'RQ-896-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 16.01.2024-y., 03/24/896/0037-son)*

## **29-modda. Patent bojlari**

*Oldingi tahrirga qarang.*

Patent berish haqidagi talabnomani topshirish, talabnomada ko'rsatilgan seleksiya yutug'ini ekspertiza va sinovdan o'tkazish, patent berish, uni o'z kuchida saqlab turish, shuningdek seleksiya yutug'ining huquqiy muhofazasi bilan bog'liq yuridik ahamiyatga ega boshqa harakatlarni bajarish uchun patent bojlari undiriladi.

*(29-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 6-yanvardagi O'RQ-600-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 07.01.2020-y., 03/20/600/0023-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Patent bojlarining miqdori va ularni to'lash muddatlari, ularni to'lashdan ozod qilish, to'lovlarning miqdorini kamaytirish yoki ularni qaytarib berish asoslari, shuningdek patent bojlaridan foydalanish tartibi qonunda belgilanadi.

*(29-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 6-yanvardagi O'RQ-600-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 07.01.2020-y., 03/20/600/0023-son)*

Patent bojlari talabnoma beruvchi, patent egasi va boshqa manfaatdor shaxs tomonidan to'lanadi.

Patentni o'z kuchida saqlab turganlik uchun patent bojlarini to'lash maqsadida, qo'shimcha patent boji to'langan taqdirda, patent egasiga olti oylik imtiyozli muddat beriladi.

Agar patentni o'z kuchida saqlab turganlik uchun patent boji va qo'shimcha patent boji imtiyozli muddat mobaynida to'lanmasa, patentning amal qilishi patent boji belgilangan muddatda to'lanmagan kundan e'tiboran tugatiladi.

## **IV. Patent egasining huquqi**

### **30-modda. Patent egasining mutlaq huquqi**

Seleksiya yutug'idan o'z xohishiga ko'ra foydalanishga bo'lgan mutlaq huquq patent egasiga tegishlidir.

Manfaatdor shaxs muhofaza qilinayotgan seleksiya yutug'ining urug'lik, ko'chat yoki nasl materialini:

yetishtirish va takror yetishtirish (ko'paytirish);

nav yoki nasllik konditsiyasiga yetkazish;

sotish uchun taklif qilish;

sotish va boshqa usullarda o'tkazish;

O'zbekiston Respublikasi hududidan olib chiqish;

O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish;

yuqorida ko'rsatib o'tilgan maqsadlarda saqlash uchun patent egasining ruxsatini olishi

kerak

Patent egasi o'z xohishiga ko'ra ruxsat biron-bir shart va (yoki) cheklovlar bilan berilishini oldindan ta'kidlab o'tishga haqli.

Patent egasining huquqi uning ruxsatisiz fuqarolik muomalasiga kiritilgan nav urug'ligining ko'chat materialidan yetishtirilgan o'simlik materialiga yoki nasldor hayvonlardan yetishtirilgan tovarbop hayvonlarga nisbatan ham amal qiladi.

Ushbu moddaning **ikkinchi qismida** ko'rsatilgan harakatlarni navning urug'lik, ko'chat materialiga yoki zotning nasl materialiga nisbatan amalga oshirish uchun:

agar bu material o'zida muhofaza qilinayotgan nav, zot belgilarini asosan saqlab qolgan bo'lsa va ana shu muhofaza qilinayotgan nav yoki zot boshqa nav yoki zotning belgilarini asosan saqlab qolgan nav yoki zot bo'lmasa;

agar bu material ushbu Qonunning **10-moddasiga** muvofiq muhofaza qilinayotgan nav yoki zotdan aniq-ravshan farq qilmaydigan bo'lsa;

agar bu material muhofaza qilinayotgan nav yoki zotdan bir necha marta foydalanishni talab qilayotgan bo'lsa, patent egasining ruxsatini olish zarur.



Agar nav yoki zot:

dastlabki nav yoki zotning eng muhim belgilarini o'zida saqlab qolgan bo'lsa va bu nav yoki zot ham o'z navbatida o'zidan oldingi dastlabki nav yoki zot genotipi yoxud genotiplar kombinatsiyasini aks ettiradigan asosiy belgilarni saqlagan holda ularning eng muhim belgilarini o'zida saqlab qolgan bo'lsa;

tabiiy yoki hosil qilingan mutantni saralab olish, dastlabki nav o'simliklari yoki zot hayvonlaridan ayrim mutantni saralab olish, bekkross, nav yoki zotni gen injeneriyasi usullari bilan o'zgartirish kabi turli usullarni qo'llash tufayli yuz bergan farqlarni istisno etganda, dastlabki nav yoki zotdan aniq-ravshan ajralib tursa va oldingi nav yoki zotning genotipi yoxud genotiplar kombinatsiyasiga mos kelsa, o'zida boshqa (dastlabki) nav yoki zotning belgilarini asosan saqlab qolgan nav yoki zot deb e'tirof etiladi.

Bir nechta patent egaciga tegishli patent bilan muhofaza qilingan seleksiya yutug'idan foydalanishdagi o'zaro munosabatlar ular o'rtasidagi kelishuvga muvofiq belgilanadi. Bunday kelishuv bo'lmasa, har bir patent egasi muhofaza qilinayotgan seleksiya yutug'idan o'z xohishi bo'yicha foydalanishi mumkin, biroq muhofaza qilinayotgan seleksiya yutug'iga boshqa patent egalarning roziligisiz mutlaq litsenziya berishga yoki patentdan boshqa shaxsning foydasiga voz kechishga haqli emas.

### **31-modda. Patent egasining huquqlaridan istisnolar**

Muhofaza qilinayotgan seleksiya yutug'idan:

shaxsiy va notijorat maqsadlarida foydalanish;

sinov-tajriba maqsadlarida foydalanish;

boshqa navlar yoki zotlar yaratish uchun dastlabki nav yoki zot sifatida foydalanish;

korxonada, xo'jalik patent egasidan olgan navli urug'lik va nasl materialidan ikki yil davomida takror yetishtirish uchun ana shu korxonada, xo'jalik hududida foydalanish patent egasining huquqlarini buzish deb e'tirof etilmaydi.

### **32-modda. Patent egasi huquqlarining tugashi**

Muhofaza qilinayotgan nav yoki zotga doir har qanday material O'zbekiston Respublikasi hududida patent egasining o'zi tomonidan yoki uning roziligi bilan sotish yoxud boshqa usullarda o'tkazish orqali yoxud qayta ishlash va iste'mol maqsadlarida tegishli botanik yoki zoologik turdagi nav yoki zot muhofaza qilinmaydigan mamlakatga olib chiqish orqali fuqarolik muomalasiga kiritilganidan keyin muhofaza qilinayotgan nav yoki zotning har qanday materialiga doir xatti-harakatlarga nisbatan patent egasining huquqi amal qilmaydi.

Agar navni yoki zotni sotish va boshqa usullarda o'tkazish ushbu nav yoki zotni keyinchalik ko'paytirishga qaratilgan bo'lsa yoxud tegishli oila turkumi yoki turdagi nav yoxud zot muhofaza qilinmaydigan mamlakatlarga ko'paytirish maqsadida navning o'simlik materialini yoki zotning nasl materialini olib chiqib ketish bilan bog'liq bo'lsa, ushbu modda **birinchi qismining** shartlari bu nav yoki zotlarga nisbatan tatbiq etilmaydi.

### **33-modda. Patent egasi huquqining buzilishi**

Ruxsat olmagan holda:

seleksiya yutug'ini yetishtirish va takror yetishtirish (ko'paytirish);

seleksiya yutug'ini nav yoki nasllik konditsiyalariga yetkazish;

muhofaza qilinayotgan seleksiya yutug'idan foydalangan holda yaratilgan mahsulotni sotishga taklif qilish, sotish va boshqacha tarzda fuqarolik muomalasiga kiritish;

saqlash, olib kirish, olib chiqish;

ma'lumotlar Apellatsiya kengashiga yoki talabnoma beruvchi yoxud patent egasining huquqlarini himoya qilishga qaratilgan rasmiy taomillarni amalga oshirayotgan shaxsga oshkor etilishini istisno qilgan holda, seleksiya yutug'iga oid tijorat siri hisoblangan ma'lumotlarni oshkor qilish patent egasi huquqlarining buzilishi deb e'tirof etiladi.

## **V. Patent amal qilishining tugatilishi**

### **34-modda. Patentni haqiqiy emas deb e'tirof etish**

Patent o'zining butun amal qilish muddati davomida, agar: seleksiya yutug'i patent berish sanasida yangilik yoki farqlanish mezonlariga mos kelmagan bo'lsa;

*Oldingi tahrirga qarang.*

patent talabnoma beruvchi taqdim etgan seleksiya yutug'ining turdoshlik va barqarorlik mezonlariga mosligi to'g'risidagi tasdiqlanmagan ma'lumotlarga asosan berilgan bo'lsa;

patentda patent egasi sifatida ko'rsatilgan shaxs patent olish uchun qonuniy asosga ega bo'lmagan bo'lsa, patentga nisbatan e'tiroz bildirilishi va u haqiqiy emas deb e'tirof etilishi mumkin.

*(34-moddaning birinchi qismi uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 14-sentabrdagi O'RQ-446-sonli Qonuniga asosan uchinchi va to'rtinchi hatboshilar bilan almashtirilgan — O'R QHT, 2017-y., 37-son, 978-modda)*

Har qanday shaxs Apellatsiya kengashiga patentni ushbu moddaning **birinchi qismida** nazarda tutilgan asoslar bo'yicha haqiqiy emas deb topish to'g'risida apellatsiya berishi mumkin.

Apellatsiya kengashi apellatsiya nusxasini patent egasiga jo'natadi, patent egasi uch oylik muddat ichida dalil-asosli javob qaytarishi lozim.

*Oldingi tahrirga qarang.*

Apellatsiya kengashi, agar seleksiya yutug'ini qo'shimcha ravishda sinovdan o'tkazish zarurati yuzaga kelmasa, tegishli ixtisoslashtirilgan tashkilotning vakillari ishtirokida apellatsiyalarni olti oy ichida ko'rib chiqadi va ular bo'yicha qaror qabul qiladi.

*(34-moddaning to'rtinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 14-sentabrdagi O'RQ-446-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2017-y., 37-son, 978-modda)*

Apellatsiya kengashining qarori ustidan qaror qabul qilingan sanadan e'tiboran olti oy ichida sudga shikoyat qilinishi mumkin.

### **35-modda. Patentning amal qilishini muddatidan ilgari tugatish**

Patentning amal qilishi:

patentni o'z kuchida saqlab turganlik uchun patent bojlari belgilangan muddatda to'lanmasa;

*Oldingi tahrirga qarang.*

patent egasi Vazirlikka patentdan voz kechish to'g'risida ariza topshirsa, muddatidan ilgari tugatiladi.

*(35-modda birinchi qismining uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 16-yanvardagi O'RQ-896-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 16.01.2024-y., 03/24/896/0037-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Patentning amal qilishi muddatidan ilgari tugatilganligi to'g'risidagi ma'lumot Vazirlikning rasmiy axborotnomasida e'lon qilinadi.

*(35-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 16-yanvardagi O'RQ-896-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 16.01.2024-y., 03/24/896/0037-son)*

### **36-modda. Patentni bekor qilish**

Quyidagi hollarda:

seleksiya yutug'i bundan buyon turdoshlik va barqarorlik mezonlariga muvofiq kelmay qolsa;

*Oldingi tahrirga qarang.*

patent egasi ixtisoslashgan tashkilotlar yoki Davlat muassasasining so'roviga binoan o'n ikki oy ichida urug'liklarni, ko'chat, nasl materiallarini, hujjatlar va axborotni seleksiya yutug'i o'z kuchini saqlab qolganligini tekshirish uchun taqdim etmagan yoki shu maqsadlarda seleksiya yutug'i joyning o'zida tekshirib ko'rilishi uchun imkoniyat yaratib bermagan bo'lsa;

*(36-modda birinchi qismining uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 16-yanvardagi O'RQ-896-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 16.01.2024-y., 03/24/896/0037-son)*

seleksiya yutug‘ining nomi bekor qilinayotgan, patent egasi esa boshqa munosib nomni taklif etmagan bo‘lsa, patent bekor qilinadi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

Patentning bekor qilinganligi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar Vazirlikning rasmiy axborotnomasida e‘lon qilinadi.

*(36-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 16-yanvardagi O‘RQ-896-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 16.01.2024-y., 03/24/896/0037-son)*

### **37-modda. Patentdan voz kechish**

Patent egasi yozma ariza berib, patentdan voz kechish huquqiga ega.

Bir nechta patent egalariidan birining patentdan voz kechishi patentning amal qilishi tugatilishiga olib kelmaydi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

Patentdan voz kechish Vazirlik patent egasidan yozma ariza olgan sanadan e‘tiboran amal qila boshlaydi.

*(37-moddaning uchinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 16-yanvardagi O‘RQ-896-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 16.01.2024-y., 03/24/896/0037-son)*

Patent egasi patentdan voz kechish niyati to‘g‘risida muallifni xabardor qilishi shart. Bunday holda muallif patentga egalik qilishda ustuvor huquqqa ega bo‘ladi.

Agar patent litsenziya shartnomasining obyekti bo‘lsa va basharti shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, patentdan faqat litsenziya egasining roziligi bilan voz kechish mumkin bo‘ladi.

### **37<sup>1</sup>-modda. Seleksiya yutug‘i patentining amal qilishini tiklash**

Patentning amal qilishini saqlab turganlik uchun patent bojlari belgilangan muddatda to‘lanmaganligi sababli amal qilishi tugatilgan seleksiya yutug‘i patentining amal qilishi patent egasining iltimosnomasiga ko‘ra tiklanishi mumkin.

*Oldingi tahrirga qarang.*

Bunday iltimosnoma patentning amal qilishi tugatilgan sanadan e‘tiboran uch yil ichida, biroq patentning ushbu Qonunda nazarda tutilgan amal qilish muddati tugaguniga qadar Vazirlikka topshirilishi mumkin.

*(37<sup>1</sup>-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 16-yanvardagi O‘RQ-896-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 16.01.2024-y., 03/24/896/0037-son)*

Patent egasining iltimosnomasiga patentning amal qilishini tiklash uchun belgilangan miqdordagi patent boji to‘langanligini tasdiqlovchi hujjat ilova qilinishi kerak.

*Oldingi tahrirga qarang.*

Seleksiya yutug‘i patentining amal qilishi tiklanganligi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar Vazirlikning rasmiy axborotnomasida e‘lon qilinadi.

*(37<sup>1</sup>-moddaning to‘rtinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 16-yanvardagi O‘RQ-896-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 16.01.2024-y., 03/24/896/0037-son)*

Seleksiya yutug‘i patentining amal qilish muddati tugatilgan sana bilan patentning amal qilishi tiklanganligi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar e‘lon qilingan sana oralig‘idagi davrda seleksiya yutug‘idan foydalanishni boshlagan yoki buning uchun zarur tayyorgarlik ko‘rgan shaxs undan kelgusida bepul foydalanish huquqini saqlab qoladi.

*(37<sup>1</sup>-modda O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 14-sentabrdagi O‘RQ-446-sonli Qonuniga asosan kiritilgan— O‘R QHT, 2017-y., 37-son, 978-modda)*

## **VI. Yakunlovchi qoidalar**

### **38-modda. Seleksiya yutug‘iga bo‘lgan huquqlarni boshqa shaxsga o‘tkazish**

*Oldingi tahrirga qarang.*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Patent olish huquqi, patent berish haqidagi talabnoma Vazirlikda ro'yxatga olinganligi natijasida kelib chiqadigan huquqlar, shuningdek patentdan kelib chiqadigan huquqlar har qanday yuridik yoki jismoniy shaxsga o'tkazilishi mumkin.

*(38-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 16-yanvardagi O'RQ-896-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 16.01.2024-y., 03/24/896/0037-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Huquqlarni boshqa shaxsga o'tkazish huquqlardan boshqa shaxs foydasiga voz kechish to'g'risidagi shartnoma yoki litsenziya shartnomasi asosida, shuningdek qonunchilikka muvofiq meros bo'lib o'tishi orqali amalga oshirilishi mumkin.

*(38-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Seleksiya yutug'idan boshqa shaxs foydasiga voz kechish to'g'risidagi shartnoma, shuningdek litsenziya shartnomasi Vazirlikda ro'yxatdan o'tkazilishi kerak.

*(38-moddaning uchinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 16-yanvardagi O'RQ-896-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 16.01.2024-y., 03/24/896/0037-son)*

### **39-modda. Seleksiya yutug'idan foydalanish huquqini boshqa shaxsga berish**

Patent berilgan nav yoki zot litsenziya shartnomasining predmeti bo'lishi mumkin.

Patent egasi bo'lmagan har qanday yuridik yoki jismoniy shaxs patent bilan muhofaza qilinayotgan seleksiya yutug'idan patent egasining ruxsati bilangina litsenziya shartnomasi asosida foydalanishga haqlidir.

*Oldingi tahrirga qarang.*

Patent egasi seleksiya yutug'idan foydalanish huquqini har qanday shaxsga berish (ochiq litsenziya) to'g'risida Vazirlikka ariza topshirishi mumkin. Bu holda patentni o'z kuchida saqlab turganlik uchun undiriladigan patent boji ellik foizga kamaytiriladi.

*(39-moddaning uchinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 16-yanvardagi O'RQ-896-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 16.01.2024-y., 03/24/896/0037-son)*

Patent egasining ochiq litsenziyaga bo'lgan huquqni boshqa shaxsga berish to'g'risidagi arizasi chaqirib olinmaydi.

Ochiq litsenziya olish istagini bildirgan shaxs patent egasi bilan litsenziya shartnomasini tuzishi shart.

Patent egasi mutlaq litsenziya yoki nomutlaq (oddiy) litsenziya bergan holda seleksiya yutug'idan foydalanish huquqini boshqa shaxsga o'tkazishi mumkin.

Mutlaq litsenziya berilganida litsenziat seleksiya yutug'idan litsenziya shartnomasida ko'rsatilgan doirada foydalanish uchun mutlaq huquq oladi, seleksiya yutug'idan foydalanish huquqining litsenziatga berilmaydigan qismi litsenziarda saqlanib qoladi.

Nomutlaq (oddiy) litsenziya berilganida litsenziar seleksiya yutug'idan foydalanish huquqini litsenziatga berib, patentdan kelib chiqadigan barcha huquqlarni, shu jumladan boshqa shaxslarga litsenziya berish huquqini ham o'zida saqlab qoladi.

### **40-modda. Majburiy litsenziya**

Agar patent egasi patent berilgan sanadan e'tiboran uch yil mobaynida seleksiya yutug'idan O'zbekiston Respublikasida foydalanmasa hamda litsenziya shartnomasi tuzishni rad etsa va, agar mazkur seleksiya yutug'idan foydalanmaslik jamiyat manfaatlariga daxl etadigan bo'lsa, bu seleksiya yutug'idan foydalanish istagidagi shaxs o'ziga majburiy litsenziya berishni so'rab ariza bilan sudga murojaat qilishi mumkin.

Majburiy litsenziya nomutlaq (oddiy) litsenziya tariqasida beriladi va uning egasiga patent egasidan dastlabki urug'lik, ko'chat yoki nasl materialini olish huquqini beradi.

Majburiy litsenziya faqat seleksiya yutug'idan ijozat etiladigan uslubda va litsenziyaga muvofiq foydalanilishini ta'minlay oladigan shaxsga beriladi.



Majburiy litsenziya patent egasining muhofaza qilinayotgan seleksiya yutug'idan foydalanishiga yoki seleksiya yutug'idan foydalanish uchun boshqa shaxsga litsenziyani berishiga to'sqinlik qilmaydi.

#### **41-modda. Seleksiya yutug'idan foydalanish**

Agar yetishtirilgan, takror yetishtirilgan, nav yoki nasllik konditsiyasiga yoki keyinchalik ko'paytirish darajasiga yetkazilgan urug'lik, ko'chat yoki nasl materiali o'zining morfologik, fiziologik va boshqa belgilari bo'yicha muhofaza qilinayotgan seleksiya yutug'ining rasmiy tavsifida aks ettirilgan ma'lumotlarga mos kelsa, seleksiya yutug'idan foydalanilgan deb hisoblanadi.

#### **42-modda. Seleksiya yutuqlarini boshqa davlatlarda patentlash**

*Oldingi tahrirga qarang.*

O'zbekiston Respublikasining yuridik va jismoniy shaxslari seleksiya yutuqlarini qonunchilikda belgilangan tartibda boshqa davlatlarda patentlash huquqiga ega.

*(42-moddaning matni O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*

#### **43-modda. Chet ellik yuridik va jismoniy shaxslarning huquqlari**

Chet ellik yuridik va jismoniy shaxslar ushbu Qonunda nazarda tutilgan huquqlardan O'zbekiston Respublikasining yuridik va jismoniy shaxslari bilan teng ravishda yoki kelishuv prinsipi asosida foydalanadilar.

#### **44-modda. Nizolarni hal qilish**

*Oldingi tahrirga qarang.*

Seleksiya yutuqlarini yaratish, huquqiy muhofaza qilish va ulardan foydalanish sohasidagi nizolar qonunchilikda belgilangan tartibda hal qilinadi.

*(44-moddaning matni O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

#### **45-modda. Seleksiya yutuqlari to'g'risidagi qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik**

Seleksiya yutuqlari to'g'risidagi qonunchilikni buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

*(45-modda O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*

*(O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2002-y., 9-son, 156-modda; O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2011-y., 52-son, 555-modda; 2017-y., 37-son, 978-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.07.2018-y., 03/18/486/1559-son; 09.01.2019-y., 03/19/512/2435-son; 13.11.2019-y., 03/19/583/4016-son; 07.01.2020-y., 03/20/600/0023-son, 05.10.2020-y., 03/20/640/1348-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son; 16.01.2024-y., 03/24/896/0037-son)*